FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 29-oktabr | 312-11-165-Q/25 | Yozyovon tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2026-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21^1-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2026-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda – ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning

ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha 256 nafar ish o‘rnini tashkil etadigan 3 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 88 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 17 kishi;

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 137 kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 4 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 9 kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

–14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

– safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

– nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

– pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

– jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ;

– odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul, o‘qituvchi.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va tadbirkorlik subyektlari rahbarlari:

Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2026-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limini xabardor qilsin;

– ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2026-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

– har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin;

– ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lashni ta’minlansin.

8. Tuman kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limini (O.Ergashev) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror “Markaziy Farg‘ona” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Turdaliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**

Yozyovon tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
312-11-165-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarga band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha maxsus komissiya

T A R K I B I

1	D.Turdaliyev	Tuman hokimining iqtisodiy, ijtimoiy masalalar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari	Ishchi guruxi raisi
2	O.Ergashev	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i	Ishchi guruxi raisi o‘rinbosari
3	N.Xayitov	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari	Ishchi guruxi a’zosi
4	U.Ikromov	Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i	Ishchi guruxi a’zosi
5	T.Sarimsaqov	Tibbiyot birlashmasi rahbari	Ishchi guruxi a’zosi
6	H.Sharipov	Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i	Ishchi guruxi a’zosi
7	M.Rahmatov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i mutaxassisi	Ishchi guruxi a’zosi

Eslatma: Komissiya tarkibiga kiritilgan tashkilot raxbarlari o‘zgargan takdirda, yangi tayinlangan raxbarlar ma’suldirlar.

Yozyovon tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
312-11-165-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Yozyovon tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli**
RO'YXATI

T/R	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRI	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo'lgan shahslar soni		nogironligi bo'lgan shahslar	Oilaviy (maishiy zo'ravonlikdanjabrlangan shahslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan y etim shahslar,ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan shahslar	Jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shahslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**6711**	**75**	**241**	**83**	**16**	**129**	**3**	**9**	**1**
1	Obodonlashtirish bulimi	205487975	153	3	5	1	1	2	0	1	0
2	Yo'llardan foydalanish Yozyovon tum bo'limi	200170124	103	2	4	1	0	1	1	1	0
3	Tibbiyot birlashmasi	200169789	1304	12	38	6	4	22	2	3	1
4	Davlat Sanitariya Nazorati Markazi	200169812	58		3	1	0	2		0	0
5	Yozyovon tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	200169930	24		1	1	0		0	0	0
6	Bolalar o'smirlar sport maktabi	207237500	96	1	5	1	0	3		1	0
7	Barkamol avlod bolalar markazi	207121868	53	2	2	1	0	1	0	0	0
8	Yozyovon tuman 1-son politexnikum	200169836	85	1	3	1	0	2		0	0

9	Yozyovon tuman 2-son politexnikum	200169994	108		4	1	0	3		0	0
10	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	200169764	62		3	1	0	2		0	0
11	28-sonli bolalar musika va sana’t maktabi	203830431	59		3	1	0	2		0	0
12	1-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203264939	136	3	4	1	1	2	0	0	0
13	2-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203251338	120	1	4	1	0	3	0	0	0
14	3-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203251345	121	1	4	1	0	3	0	0	0
15	4-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892044	58	1	2	1	0	1	0	0	0
16	5-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892052	76	1	3	1	1	1	0	0	0
17	6-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203251353	99	2	3	1	1	1	0	0	0
18	7-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203251360	106		4	1	0	3		0	0
19	8-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892069	43	1	2	1	0	1	0	0	0
20	9-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892076	38		2	1	0	1	0	0	0
21	10-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892084	55		2	1	0	1	0	0	0
22	11-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892091	35	2	2	1	0	1	0	0	0
23	12-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892109	53		2	1	0	1	0	0	0
24	13-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203255363	131	1	4	1	0	3		0	0
25	14-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	203255370	105	1	4	1	0	3		0	0
26	15-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892116	58	2	2	1	0	1	0	0	0
27	16-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892124	93	1	3	1	0	2		0	0
28	17-sonli umumiy urta ta’lim maktabi	206892131	62		2	1	0	1	0	0	0

29	18-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892148	53	1	2	1	0	1	0	0	0
30	19-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892155	63	1	2	1	0	1	0	0	0
31	20-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892163	37		2	1	0	1	0	0	0
32	21-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892170	64		2	1	0	1	0	0	0
33	22-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892187	65		2	1	0	1	0	0	0
34	23-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892194	47	1	2	1	0	1	0	0	0
35	24-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892203	54		2	1	0	1	0	0	0
36	25-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892210	74	2	3	1	1	1	0	0	0
37	26-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892227	78	1	3	1	1	1	0	0	0
38	27-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892234	60	2	2	1	0	1	0	0	0
39	28-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892242	111	7	4	1	0	3		0	0
40	29-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892259	99	1	3	1	1	1	0	0	0
41	30-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892266	123	5	4	1	0	2	0	1	0
42	31-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892274	124	3	4	1	0	2	0	1	0
43	32-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892281	63		2	1	0	1	0	0	0
44	33-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892298	42	1	2	1	0	1	0	0	0
45	34-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	206892306	60	1	2	1	0	1	0	0	0
46	35-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	306190132	43		2	1	0	1	0	0	0
47	36-sonli ixtisoslashtirilgan maktabi	204805603	70		3	1	1	1	0	0	0

48	37-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	207022397	35		2	1	0	1	0	0	0
49	38-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	309869160	52		2	1	0	1	0	0	0
50	39-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	306605143	74		3	1	1	1	0	0	0
51	40-sonli umumiy urta ta'lim maktabi	310767298	61		2	1	0	1	0	0	0
52	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Yozyovon tuman ixtisoslashgan maktabi	309868503	63		2	1	0	1	0	0	0
53	1-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	206836001	67		3	1	0	2		0	0
54	2-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207009768	56	1	2	1	0	1	0	0	0
55	3-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207029086	41	1	2	1	0	1	0	0	0
56	4-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207008151	59		2	1	0	1	0	0	0
57	5-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	305439517	49	1	2	1	0	1	0	0	0
58	6-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207005583	73	2	3	1	1	1	0	0	0
59	7-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	305478366	30		2	1	0	1	0	0	0
60	8-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207031584	55		2	1	0	1	0	0	0
61	9-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	306452059	36		2	1	0	1	0	0	0
62	10-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207029521	53		2	1	0	1	0	0	0
63	11-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207006598	111		4	1	0	3		0	0
64	12-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207005948	69	1	2	1	0	1	0	0	0

65	13-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207084154	41		2	1	0	1	0	0	0
66	14-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207005299	86	1	3	1	1	1	0	0	0
67	15-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207084162	76		3	1	0	2	0	0	0
68	16-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207005590	92	2	3	1	1	1	0	0	0
69	17-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207029514	57		2	1	0	1	0	0	0
70	18-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207084179	84	1	3	1	0	2		0	0
71	19-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	204803749	46		2	1	0	1	0	0	0
72	20-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207084186	63		2	1	0	1	0	0	0
73	21-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207084194	34		2	1	0	1	0	0	0
74	22-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207308593	36		2	1	0	1	0	0	0
75	23-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	207031591	109		4	1	0	2	0	1	0
76	24-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	308010504	61		2	1	0	1	0	0	0
77	27-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	309712412	53	1	2	1	0	1	0	0	0
78	28-sonli maktabgacha tarbiya muassasasi	311304080	65		2	1	0	1	0	0	0

Yozyovon tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
312-11-165-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Yozyovon tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining roʻyxatdagi oʻrtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori boʻlgan korxonalar bundan mustasno***) tomonidan majburiy zaxira qoʻyiladigan ish oʻrinlarining manzilli**
RO'YXATI

T/R	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRI	Shtat jadvali boʼyicha xodimlarning umumiy soni	shundan	Kelgusi yilga zaxiraga qoʼyish taklif etilayotgan ish oʼrinlari soni	шу жумладан:			
				nogironligi bo'lgan shahslar soni		nogironligi bo'lgan shahslar	Oilaviy (maishiy zo'ravonlikdanjabrlangan shahslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	Muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shahslar,ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan shahslar
Жами:			**680**	**4**	**15**	**5**	**1**	**8**	**1**
1	"ARGOLID" MChJ	204349498	174	2	4	1	1	1	1
2	"FAR-ZULFIQOR" FERMER XO'JALIGI	203918803	144	1	3	1		2	
3	"FAR-KARIM OTA" FERMER XO'JALIGI	203919191	119	1	2	1		1	
4	"FAR OTABEK 2020" FERMER XO'JALIGI	307467118	110	0	3	1		2	
5	"FAR VOSIL OTA" FERMER XO'JALIGI	308293857	133	0	3	1		2	

Yozyovon tumani hokimining
2025-yil 29-oktabrdagi
312-11-165-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Yozyovon tumani bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Tuman (shahar) nomi	Jami tashkilotlar soni *(3=7+17)*	Xodimlar soni *(4=8+18)*	shundan, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni *(5=9+19)*	Jami band qilinadigan ish o‘rinlari soni *(6=10+20)*	Davlat tashkilotlari soni *(20 nafardan ortiq xodimi bor ar)*	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan: nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlanganlar shaxslar	Tadbirkorlik subyektlari soni *(100 nafardan ortiq xodimi borlar)*	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan, nogironligi bo‘lgan shaxslar soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan: nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
A	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	*12*	*13*	*14*	*15*	*16*	*17*	*18*	*19*	*20*	*21*	*22*	*23*	*24*
1	Yozyovon tumani	83	7391	79	256	78	6711	75	241	83	16	129	3	9	1	5	680	4	15	**5**	**1**	**8**	**1**